

Ikromova Shahnoza Rajabovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika fakulteti 1-bosqich magistranti

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonining mazmuni va sifati axborotlashgan jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilyotgani, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvlarning rolini o'rganish shuningdek ijodiy qobiliyatning boshlang'ich ta'limda rivojlanishi o'quv mashg'ulotlarining rangba-rang tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarning turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishlari muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Kalitso'zlar: boshlang'ich ta'lim, integratsiya, fanlararo yondoshuv, ijodiy qobiliyat, ta'lim metodikasi, pedagogika, innovatsion metodlar, ijodiy fikrlash, yaratilish va kreativlik, ta'lim tizimi, o'quvchi faoliyati, ta'lim samaradorligi.

Kirish: O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi renessans davrida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida 7-11 yoshli shaxslarni barkamol voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida quyidagi vazifalar alohida qo'yildi: "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga o'qitilayotgan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani quyidagi jihatlardan takomillashtirilishi lozim:

-fanning o'quv dasturini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish;

-fan bo'yicha talabalar va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar hamda murabbiylar uchun xalqaro mezonlarga mos darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish;

-boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi pedagogik ishlanmalar bilan boyitish.

Mazkur vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining o'quv dasturi 2024-2025 o'quv yilidan boshlab takomillashtirildi, uni o'qitish asoslari yangilanib qator darsliklar tuzildi. Shuningdek boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan holda yangi zamonaviy darsliklar umumta'lim maktablari amaliyotida tadbiq etildi.

1 Integratsiyalashgan ta'lim serqirra harakterga ega. Umumta'lim muassasalarida samarali ta'lim jarayonini tashkil qilish qulay ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilar bilan ishlash uchun o'qituvchinig pedagogik qobiliyati, tajribasi, bilim va malakasi hamda uni qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagog hayotning barcha sohalarida faol bo'lishi lozim. Biroq, ular orasida psixologiya muhim ahamiyatga ega.

Pedagog faoliyati - bu eng avvalo boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda o'quvchilarni bir nechta fanlar bo'yicha bir vaqtning o'zida bilim olishga undaydi. Bu jarayonda pedagog turli fanlar o'rtasida bog'lanishlar yaratib, o'quvchilarni birlashtirilgan, tizimli tarzda fikrlashga o'rgatadi. Aynan, mana shu o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli usullarni qo'llaydi. Bunga kreativ mashqlar, guruh ishlari, muammolarni hal qilish vazifalari, loyihalar va o'yinlar kiradi. Pedagog o'quvchilarning ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus metodikalarni ishlab chiqadi. Pedagog o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, har bir o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, ayrim o'quvchilar uchun ijodiy qobiliyatlarni oshirishga qaratilgan qo'shimcha mashqlar va topshiriqlar bera olishi shart.

Muammo doirasida ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyaning nazariy asoslarini o'rganadi va bu yondoshuvni o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Fanlararo integratsiya orqali ta'lim jarayonining birlashtirilgan va tizimli yondoshuv bilan amalga oshirilishi nazariy jihatdan asoslanadi.

Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi bilan bog'liq psixologik va pedagogik asoslarni o'rganadi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida qanday psixologik, kognitiv va emotsional yondoshuvlar qo'llanishi zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, motivatsiya va faoliyatga bo'lgan yondoshuvlarning ijodiy rivojlanishga ta'siri faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday faoliyatni psixologik ta'minlash o'qituvchi yangi texnologiyalarni o'z faoliyatiga kiritadi. Bu interaktiv ta'lim vositalari, raqamli materiallar, onlayn platformalar va boshqa zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olishi mumkin. Bu pedagogga o'quvchilarga yanada qiziqarli va samarali ta'lim berish imkoniyatini yaratadi. Har qanday faoliyatni takomillashtirish ayniqsa, uning murakkab, keng qamrovli ekanligi uni amalga oshiruvchi shaxsga nisbatan bir qator talablarni qo'yadigan faoliyatning samaradorligini oshirish bizning mustaqil demokratik davlatimiz oldiga qo'ygan vazifalarni og'ishmay bajarish, har qanday jabhaning o'sishida, uning vazifalari quyidagilarni tashkil qiladi

Ular:

- boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmuni bo'yicha bilim berish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni o'rgatish;
- boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayonni tushuntirish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy faoliyati bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish;
- boshlang'ich ta'lim mohiyati bo'yicha bilim berish;
- boshlang'ich ta'limda pedagogik yondashuvlar yuzasidan malaka berish.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvlarning rolini oshirishda o'qituvchilarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- boshlang'ich ta'lim pedagogikasi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish;

- boshlang'ich ta'limda innovatsiya bo'yicha konikmani egallash;

-individual o'qitish metodikasi bilan qurollanish.

Bu talabalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan ushbu fan vositasida o'zlashtiriladi.

Ayni damda zamonaviy pedagogni saralashning zamonaviy shart-sharoit- larda, ko'p qirrali test metodlari yordamida shaxsni faoliyat uchun yaxlit psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini uning ichki imkoniyatlari hamda kasbiy muhim xususiyatlarining sifati bilan birgalikda tahlil qilish asosida tashkil qilish mumkin.

-o'quvchilar uchun bir nechta fanlar o'rtasida bog'lanish yaratish orqali darslarni samarali tashkil etish, bu orqali ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Pedagoglar uchun fanlararo integratsiya asosida yangi metodlar va usullar ishlab chiqish samaradorligini oshiradi.

-o'qituvchilarning o'z pedagogik malakalarini oshiradi va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishga yordam beradi hamda amaliyotga qo'llash faoliyat jarayoniga malakali yetuk kadrlarni tanlash va samaradorligiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

-ta'lim jarayonidagi fanlararo integratsiyaning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga, o'quvchilarning ijodiy va umumiy rivojlanishini ta'minlashga jamoadagi psixologik muhitning ta'sir xususiyatlari asoslaniladi.

-o'quvchilarni ijodiy ishlarga jalb qilish, yangi g'oyalar yaratishga undash ularning o'ziga bo'lgan ishonchini va mustaqillikni oshirib o'quvchilarda o'z bilimlarini o'rganishga, rivojlantirishga qiziqishni kuchaytirishini belgilab beradi.

Aynan umumta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim pedagoglarini faoliyatga nisbatan munosibligini aniqlash, o'rganishda pedagogik-psixologik tekshirish metod va metodikalarini o'rni muhim sanaladi. Shu nuqtai nazardan olganda, umumta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim pedagoglarini o'rganishning tashxis qilish metodikalarini ishlab chiqish va tizimlashtirish muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 23 sentyabr, 2020- yil.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

3.2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni va unga 1-ilova -//Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ma'lumotlar bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

4.Hoshimov K., NishonovaS. Pedagogika tarixi.–T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

5. Hoshimov K., Nishonova S., Imomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi.–T.: O‘qituvchi, 1996.
6. Yo‘ldoshev J.G., Xasanov S. Avestoda ahloqiy-ta’limiy qarashlar. T.: O‘qituvchi, 1992.
7. Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
8. Hoshimov K., Safo Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.–T.: O‘qituvchi, 2010.
9. Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. –T.: NOSHIR, 2012.
10. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.–T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017.